

**"TARBIYASI OG'IR O'QUVCHILARNI OILA, MAKTAB, MAHALLA  
HAMKORLIGIDA TARBIYALASH MEXANIZMLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH"**



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7776357>



**Xolmurodova Nafisa Tolibjonovna**

Osiyo Xalqaro universiteti Buxoro shahri pedagogika va psixologiya yo'naliishi 1-bosqich magistranti

**ELSEVIER**



**Received:** 22-03-2023

**Accepted:** 22-03-2023

**Published:** 22-03-2023

**Abstract:** Tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan ishlashda muvaffaqiyatga erishish uchun, eng avvalo, ularning oilasi, do'stlari to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishimiz lozim. Mazkur maqolada shu masalaga to'xtalib o'tamiz.

**Keywords:** qiziqarli ish, oilaviy sharoit, nazoratga olinish, tarbiyasi og'ir bolalar.

**About:** FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

**"СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ СОВМЕСТНОГО  
ВОСПИТАНИЯ В СЕМЬЕ, ШКОЛЕ, РАЙОНЕ УЧАЩИХСЯ С ТЯЖЕЛЫМИ  
ФОРМАМИ ВОСПИТАНИЯ"**

**Холмуродова Нафиса Талибжоновна**

Азиатский Международный университет г. Бухара педагогика и психология магистрант 1-й ступени



**Received:** 22-03-2023

**Accepted:** 22-03-2023

**Published:** 22-03-2023

**Abstract:** Чтобы добиться успеха в работе с учащимися с тяжелым воспитанием, мы должны, прежде всего, знать об их семье, друзьях. В этой статье мы коснемся этого вопроса.

**Keywords:** Интересная работа, семейная обстановка, присмотр, дети с тяжелым воспитанием.

**About:** FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

**"IMPROVING THE MECHANISMS OF JOINT EDUCATION IN THE FAMILY,  
SCHOOL, DISTRICT OF STUDENTS WITH SEVERE FORMS OF  
EDUCATION"**

**Kholmurodova Nafisa Tolibzhonovna**

Asian International University of Bukhara Pedagogy and Psychology 1st degree Master's student



**Received:** 22-03-2023

**Accepted:** 22-03-2023

**Published:** 22-03-2023

**Abstract:** To be successful in working with students with a difficult upbringing, we must first of all know about their family and friends. In this article we will touch on this issue.

**Keywords:** Interesting work, family environment, supervision, children with difficult upbringing.

**About:** FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

Jamiyatimizda yoshlar tarbiyasida ayrim bo'shliqlar vujudga kelayotganini dunyoqarashi past, bilimi zaif, yosh bo'lsada, jinoyatga qo'l urgan, giyohvandlikga moyil, ichkilik va chekishga ruju qo'ygan, o'qishga qiziqmaydigan, tarbiyasi og'ir

bolalarning borligi tashvishli holdir. Bolaning maktab vaqtida shakllanishida o'qituvchi, mutaxassis pedagog xodimlar, ya'ni sinf rahbarlari va boshlang'ich sinf o'qituvchilarining roli kattadir.

Ta'lif muassasasida tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan amalga oshiriladigan ishlar tartibi:

Tarbiyasi og'ir bolalar va noqobil oila farzandlari uchun alohida kuzatuv ishlarini olib borish;

-Tarbiyasi og'ir bolaning yashash joyida ham nazoratga olinishini ta'minlash;

-Voyaga yetmagan oquvchilarning ijobiy yoki salbiy tomonga o'zgarishini doimiy nazorat qilib borish;

-Mahallada hamda mактабда tarbiyasi og'ir bolaning qiziqarli ish bilan shug'ullanishini ta'minlash.

-Mahallada tarbiyaning ta'sirini oshirish;

-Darslarga sababsiz kelmay qolgan o'quvchilar haqida aniq ma'lumotlarga ega bo'lish, ular bilan darhol profilaktik ishlarni amalga oshirish;

- Har bir o'quvchining oilaviy sharoiti bilan birga psixik, fizik rivojlanishini kuzatib borish;

-O'quvchilarning oilaviy sharoitini o'r ganib, ularning ota-onalari haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lish;

- Maktab psixologi bilan hamkorlikda tarbiyasi og'ir o'quvchilarning psixik holatlarini kuzatib borish. Kuzatishlarimizdan bilamizki, oilaning to'liq yoki noto'liqligi ham bolalar va o'smirlar nazoratsizligining kelib chiqishiga u yoki bu ko'rinishda ta'sir qiladi. Shu boisdan oilada ota-onalarning birgalikda ahil, inoq yashashligi bolalar va o'smirlar xulqidagi og'ishlarning oldini olishda muhim hisoblanadi. Ota onalar tushunishida qiyinchiliklarga uchraydigan bolaning mumkin bo'lgan barcha variantlarini aytib o'tish foydasiz, chunki har qanday bola ham tabiatan "qiyin" bo'lishi mumkin. Odatda hamma bolalar tug'ilgan vaqtlaridayoq ota onalariga ma'lum bir qiyinchiliklar keltiradilar. Ammo ba'zilar uchun muammo bo'lgan narsa, boshqalarga hech qanday qiyinchilik keltirmaydi va u ko'pgina sabablarga bog'liq. Bolaga nisbatan ota onalarning tutgan yo'li, oiladagi qadriyatlar tizimi, oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning bor yoki yo'qligi, shuningdek boshqa ko'pgina narsalar bolani tarbiyalash jarayonida muqarrar ravishda paydo bo'ladigan qiyinchiliklarni bartaraf etish malakasini belgilab beradi. Barcha insonlar ham bir xilda bo'lmaydi, shuningdek, oilalar ham turlichadir. Shubhasiz bolalar ham bir-biriga o'xshamaydi. Bu tabiiy hol. Lekin ko'pincha kattalar buni unutib qo'yadilar, o'zlaricha qandaydir umumiyl tavsiyalardan yordam ko'rishga moyil bo'ladilar va bunda: "bola bajarishi kerak", "bolaga mumkin emas" kabi so'zlarni ishlatadilar. Bu esa xato. Bola avval boshdanoq hech narsani bajarishga majbur emas, unga hech narsa joiz ham emas.

Aksincha, kattalar uning me'yorida rivojlanishi uchun sharoit yaratishlari, uni kishilar orasida yashashga o'rgatishlari, ularning xis-tuyg'ularini, xohish-istiklarini va ishlarini tushunishlari lozim. Vaqt o'tishi bilan, payti kelganda uning o'zi nimalar qilishi kerakligini, kimga nimalar qilishga majburligini, kimning oldida qarzdorligini va bu qarzlarni boshqa kishilarga o'z ota onalarga, do'stlariga va nixoyat, o'z bolalariga nisbatan mehr - muxabbat, mehribonligi bilan uzishni tushunib oladi. Buning uchun esa bolani qanday bo'lsa shundayligicha qabul qilish uni tushunishga harakat qilish va uning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, u bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlarning qo'shimcha qiyinchiliklar keltirib chiqarmaydigan, aksincha oilada eng qadriyatli hisoblangan o'zaro hurmat, ilqlik va himoyalanganligini his etishga yordam beradigan usulini topish kerak. Bolalarning ma'lum bir qismi sho'xligi, intizomsizligi, qo'rsligi bilan ajralib turadi. Bunday o'quvchilarga individual yondoshish va ularning intizomsizlik sabablarini aniqlash lozim. Bunday bolalar bilan olib boriladigan ishlar ularning faoligini maqsadga muvofiq tashqil etish, qadr-qimmati, malum darajada mustaqillikka bo'lgan huquqlarini hurmat qilishni nazarda tutadi.

Xulq-atvorida mehnat qilish istagi va odatining yo'qligi-yalqovlik bilan xarakterlanadigan bolalar alohida guruhni tashkil etadilar. Maktab ma'muriyati bunday bolaning mehnat qilishga bo'lgan intilishnini payqab olishi va turli xil yo'llar bilan ragybatlantirishi lozim.

Hozirgi vaqtida bolalar tomonidan yo'l qo'yiladigan qonunbuzarliklarning oldini olishda maktabning roli juda katta. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan qurollangan o'qituvchi tarbiya jarayonining bosh tashqilotchisi, o'quvchiga, o'quvchilar jamosiga, oilaga ko'rsatiladigan pedagogik ta'sirlarning muvofiqlashtiruvchisi sifatida namoyon bo'lmoqda. Balog'atga yetmagan bolalarning qarovsizligi va qonunbuzarliklarining oldini olishni maktab tomonidan amalga oshirilayotgan yaxlit sistemaning bir qismi deb qarash lozim. Ana shu jarayon doirasida pedagoglarning say-harakatlari quyidagilarga qaratilishi kerak:

- o'quvchi shaxsini tarkib toptirishga salbiy ta'sir etuvchi tashqi omillar ta'sirining oldini olishga, bola huquqlarining buzilishga va buning oqibati sifatida o'quvchi tarbiyasinin og'irlashishiga olib keluvchi sabab va sharoitlarni yo'qotishga;

- butun tarbiya jarayonini tuzatishga uning normallashuvi ikki darajada ro,,y beradi;

Bu davrda umumta'lim maktablarining alohida ichki nazoratiga olinishi va u o'quvchilar bilan tushuntirish ishlarini olib borish kerak. Mazkur o'quvchilar bilan tushuntirish ishlari olib borishni quyidagi tartibda amalga oshirish maqsadga muvofiq.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Doston Xolmatov "Hikoyalarda davr va qahramon masalasi" maqola.  
SCIENTIFIC PROGRESS Farg'onadavlat universiteti
2. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. -T., "Ma'naviyat", 2000. -112 bet
3. B. Shukurova "Yangi davr hikoyachiligining o'ziga xos xususiyatlari"  
"O'zbekistonda ilmiy- amaliy tadqiqotlar" Respublika ilmiy konferensiyasi